TALABALARNING MAQOLA YOZISHGA O‘RGATISHDA ILMIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

Komilova Gulmira Olimovna

Toshkent Xalqaro Molyaviy Boshqaruv va Texnalogiyalar Universiteti

Filologiya kafedrasi dotsenti

kamilovaguli@gmail.com

Murodullayeva Sug’diyona Asatullo qizi

Toshkent Xalqaro Molyaviy Boshqaruv va Texnalogiyalar Universiteti

Filologiya kafedrasi talabasi

sugdiyonamurodullayeva@gmail.com

Annotatsiya

Hozirgi zamonda ilmiy maqola yozish akademik faoliyatning muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. Biroq talabalar ilmiy maqola yozish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xususan, ilmiy yondashuvning yetishmasligi hamda maqola tuzilmasi — IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion) modelini yetarlicha bilmaslik asosiy muammolardan biridir.

Kalit so’zlar

IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion), kvantativ, kvalitativ, metod

THE IMPORTANCE OF A SCIENTIFIC APPROACH IN TEACHING STUDENTS TO WRITE ACADEMIC ARTICLES

Annotation

In the modern era, writing scientific articles is considered one of the essential skills in academic activity. However, students face various difficulties in the process of writing scientific articles. In particular, the lack of a scientific approach and insufficient knowledge of the article structure—IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion)—are among the main problems.

Keywords

IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion), quantitative, qualitative, method.

Kirish: Hozirgi zamonda ilmiy maqola yozish akademik muhitdagi muhim ko’nikmalardan biri bo’lib, ilmiy tadqiqot faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Biroq talabalar ilmiy maqolalar yozishda bir qancha to’siqlarga duch kelmoqdalar. Talabalarda maqola yozish uchun ilmiy yondashuvning yo’qligi va maqola yozish strukrukturasi IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion) ni bilmasligi asosiy muammolardan.

Maqola yozish jarayonida ikki yondashuv qo’llaniladi: kvantativ va kvalitativ metodlar. Ushbu metodlar tahlil va ma’lumotlarni taqdim etishda farq qilsada, ularning asosiy maqsadi bir xil – ya’ni muayyan hodisani chuqur anglashdir.

Biroq ko’plab tadqiqotchilar, ayniqsa talabalar va yangi o’rganuvchilar, ushbu metodlarni to’g’ri tushunish va amalda qo’llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Metodlarning oziga xos

xususiyatlarini yetarlicha bilmaslik maqola strukturasida nomuvofiqlik, noto'g'ri tahlil usullaridan foydalanish tadqiqot natijalarini izohlashdagi xatolarga olib keladi.

Shu sababli ham talabalarga kavnatativ va kvalitativ metodlar o'rtasidagi farqlar, o'xshashliklar va maqola yozish strukturalarini tushuntiruvchi tizimli ta'lim zarur.

Magistratura talabalarining akademik ko'nikmalari va professional darajasini oshirish maqsadida **Universitas Dirgantara Marsekal Suryadarma** maxsus ta'limiy tadbir tashkil etdi. Ushbu tadbir kvantitativ va kvalitativ metodlari asosida ilmiy maqola yozishga bag'ishlangan bo'lib, unda turli yo'nalishlarda tahsil olayotgan 30 nafar magistratura talabasi ishtirok etdi. Tadbir ishtirokchilarda maqola yozish strukrukturasi IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion) ni anglash muhimligini ham tushuntirishga qaratilgan. Bu esa talabalarga o'z tadqiqot mavzusi uchun mos metodni tanlash, maqolani to'g'ri tuzish va natijalarni aniq hamda ishonarli tarzda taqdim etishga yordam beradi.

Ushbu ta'limiy tadbir 2 soat davomida Zoom platformasi orqali onlayn tarzda o'tkazildi. Mashg'ulot davomida ilmiy maqola yozish va nashr etish sohasida tajribaga ega mutaxassislar maqola yozishning barcha bosqichlarini batafsil tushuntirib berdi.

Jarayon muammoni aniqlash va maqola rejasini tuzishdan boshlab, maqolani nufuzli jurnallarga yuborishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oldi. Har bir bosqich amaliy misollar va qo'llanmalar bilan tushuntirildi. Ishtirokchilar savol berish va muhokamada qatnashish imkoniga ega bo'lib, bu ularga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash imkonini berdi.

Tadbirda Universitas Dirgantara Marsekal Suryadarma universitetining 30 nafar magistratura talabasi ishtirok etib ular mashg'ulot davomida yuqori faollik ko'rsatdi. Talabalar ayniqsa sifatli ilmiy maqola yozish, xalqaro jurnallarda chop etilish imkoniyatini oshirish va maqolaning rad etilish ehtimolini kamaytirish bo'yicha savollar bilan faol qatnashdilar.

Savollar turlicha bo'lib, ilmiy mavzuni tanlash, kuchli tezis yozish, maqola tuzilmasini to'g'ri shakllantirish hamda xalqaro jurnallar talablariga mos yozish uslublariga oid masalalarni qamrab oldi. Ushbu faollik talabalarning akademik ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji va ilmiy hamjamiyatga hissa qo'shish istagi yuqori ekanini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tadqiqot ijobiy natijaga erishdi - ya'ni ishtirokchilarning 70% i ushbu tadbirdan so'ng kvantitativ, kvalitativ metodlar o'rtasidagi farqlarni va maqola yozish strukturasini tushunganini bildirdi. Bu tadqiqot shuni korsatadiki talabalarda yuqori darajadagi akademik ko'nikmani shakllantirmoqchi bo'lsak, dastlab ularga malakali mutaxassislar tomonidan zarur bilimlarni berishimiz lozim, bu esa yuqori darajadagi akademik aniqlikni taminlashning zarur shartlaridan biri hisoblandi.

Adabiyotlar

1. Susanto, Primadi Candra, and Sri Yanthy Yosepha. "Edukasi Metode Cara Menulis Artikel Kuantitatif dan Kualitatif untuk Mahasiswa Pascasarjana." *ASPIRASI : Publikasi Hasil Pengabdian dan Kegiatan Masyarakat*, 2025. https://doi.org/10.61132/aspirasi.v3i1.1332.
2. Sari, Yuli Ifana, et al. "The Effect of Problem Based Learning on Problem Solving and Scientific Writing Skills." *International Journal of Instruction*, 2021. https://doi.org/10.29333/iji.2021.1422a.
3. Nisa, Khairun, et al. "Writing scientific articles for undergraduate students: A need analysis." *International Journal of Evaluation and Research in Education (IJERE)*, 2023. https://doi.org/10.11591/ijere.v12i3.24999.

4. Nisa, Khairun, et al. "Implementing a Problem-Based Learning Model in Writing Scientific Articles for Undergraduate Students." *Journal of Language Teaching and Research*, 2023. https://doi.org/10.17507/jltr.1405.21.